Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317406

Dinamik ekonometrik modellar iqtisodiy hodisalarni vaqt o'tishi bilan o'rganish uchun kuchli vositadir. Ular vaqt qatori ma'lumotlaridan foydalanadi, o’garuvchilarni o’tmishdagi qiymatini hisobga oladi va o'zgaruvchilarning o'zaro bog'liqligini tahlil qiladi. Dinamik modellar makroiqtisodiyot, moliya, marketing, energetika va atrof-muhit iqtisodiyoti kabi sohalarda keng qo'llaniladi. Ularni to'g'ri qo'llash va baholash natijalarning ishonchliligini ta'minlash uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov R.X., Almuradov A.A., Xomidov S.O. "Ekonometrik modellashtirish". O'quv qo'llanma. – Toshkent: IQTISODIYOT, 2019. – 122 bet.
2. Xatamov O.Q. "Ekonometrika asoslari". O'quv qo'llanma. – Qarshi: Intellekt nashriyoti, 2022. – 220 bet.
3. Abdullaev A.M., Xodiev B.Yu., Ishnazarov A.I. "Ekonometrika". Darslik. – Toshkent: TDIU, 2007.
4. Internet saytlari va ilmiy maqolalar

«YASHIL» IQTISODIYOTGA O‘TISH BO‘YICHA JAHON TAJRIBALARI

Ergashev Ilxomjon Ikromovich
Qo’qon universiteti, “Ijtimoiy va iqtisodiy” fanlar kafedrasi dotsenti i.f.f,d (PhD),
ergashev_1980@list.ru
Abdurafikova Dilnoza Obidjon qizi
Kokand universiteti Andijon filiali
Iqtisodiyot 24-01 guruhi talabasi

Annotatsiya: Yashil iqtisodiyot - bu past uglerodli, resurslardan samarali foydalaniladigan va ijtimoiy jihatdan inklyuziv iqtisodiy model bo‘lib, unda iqtisodiy o‘sish va bandlik darajasi atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, uni muhofaza qilish orqali ta’minlanadi. Ushbu maqolada turli davlatlarning yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha olib borgan islohotlari, investitsiyalarni yo‘naltirish orqali uglerod chiqindilarini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlab chiqarish, energiya va resurs samaradorligini oshirish va biologik xilma-xillik tahlil qilinadi. Mazkur tajribalar O‘zbekiston uchun foydali bo‘lgan xulosalarni ishlab chiqishda muhim manba hisoblanadi.

Kalit so’zlar:
Yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, energetika, strategik islohotlar, xalqaro tajriba

So‘nggi yillarda “yashil” iqtisodiyot tushunchasi global darajada muhim mavzuga

Published: 24.05.2025
Cite this article: Ergashev Ilxomjon Ikromovich, Abdurafikova Dilnoza Obidjon qizi (2025). «Yashil» iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha jahon tajribalari. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317406
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

aylangan bo‘lib, u ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni birlashtirgan yangi model sifatida qaralmoqda. BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) “yashil” iqtisodiyotni “inson farovonligini oshiruvchi va ijtimoiy tenglikni ta’minlovchi, ayni vaqtda atrof-muhit xavfini kamaytiruvchi iqtisodiy faoliyat” deb ta’riflaydi. Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar yashil iqtisodiyotni strategik rivojlanish yo‘nalishi sifatida tanlagan bo‘lib, bu borada turli islohotlar, investitsiya siyosatlari va normativ-huquqiy bazalar shakllantirilmoqda. Iqtisodiy resurslar va global isish tufayli, “Yashil” iqtisodiyotga o’tish lozimligi asoslangan. Xalqaro tashkilotlar “Yashil” iqtisodiyot strategiyasi bilan atrof-muhitni saqlash va iqtisodiyotni rivojlantirishni maqsad qilib bu strategiyani dunyoga tanishtirganlar.

2008-yil oktyabr oyida BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) “Yashil iqtisodiyot tashabbusi”ni (Green Economy Initiative) ishga tushirdi. Ushbu tashabbusning maqsadi — ekologik jihatdan zararli sohalarni “yashillashtirish” hamda yashil sohalarga investitsiya kiritishni rag‘batlantirish uchun tahliliy ma’lumotlar va siyosiy qo‘llab-quvvatlashni taqdim etishdan iborat. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotga quyidagicha ta’rif beradi: “Yashil iqtisodiyot — bu inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilash bilan birga, atrof-muhitga bo‘lgan xavflar va ekologik resurslarning tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyotdir. Eng sodda ifodada, yashil iqtisodiyot bu — past uglerodli, resurslardan samarali foydalaniladigan va ijtimoiy inklyuziv iqtisodiy modeldir.” Boshqa ba’zi hukumatlar va koalitsiyalar tomonidan ham turli ta’riflar berilgan bo‘lsa-da, ularning barchasi asosan ushbu asosiy g‘oyani ifodalaydi (ECE/FAO, 2018).

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi:

Germaniya

Germaniya “Energiewende” dasturi orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish bo‘yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. 2022-yilga kelib mamlakat energiyasining 46 foizi quyosh, shamol va biomassa hisobidan ta’minlandi. Davlat subsidiyalari, ekologik soliq islohotlari va texnologik innovatsiyalar bu o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatladi. Bu strategiyani asosiy maqsadlari: Yadro energiyasidan butunlay voz kechish; Qayta tiklanish energiya manbalariga to’liq o’tish yani quyoshdan, shamol va biomassadan energiya ishlab chiqarish; Uglerod chiqindilarini kamaytirish va xavo ifloslanishiga qarshi kurashish; Energiya samaradorligini kamaytirish. Bu dastur 1990 yilda dastur bo’yicha qaror qabul qilindi va 2000 yilda “Energiewende” strategik hujjati ishlab chiqildi. Keyinroq, 2011 yilga kelib Yaponiyadagi yadro inqirozidan so‘ng, Germaniya hukumati 2022-yilgacha barcha yadro elektr stansiyalarini yopish qarorini

qabul qildi. Shu yildan boshlab “Energiewende” rasmiy davlat siyosatiga aylandi. ”Yashil” iqtisodiyotning Germaniyadagi eng katta yutuqlari bu 2020-2022 yilladagi 500 mld yevroga yaqin investitsiya kiritilganligidadir, hamda yashil energetika sohasida 300 mingdan ortiq ish o’rinlari yaratilganligidadir. Shuningdek, davlatda bir qancha qiyinchiliklar yuz bergan, masalan, energiya narxi yani energiya narxi aholining daromadiga yuk bo’lgan ayniqsa past daromadli qatlamga.

Tarmoqlarni modernizatsiya qilish yani zamonaviy texnologiyaga o’tkazish, chunki energiya ishlab chiqaruvchi shamol generattorlari shimolda joylashgan, energiyani janubga yetkazish uchun yangi infratuzulmalar zarur bo’lgan. Yana bir muammo bu zaxira manbalaridir chunki quyosh va shamol doyim xam bo’la vermaydi shuning uchun gaz va boshqa quvvat manbalariga extiyoj bor. Bunday natijalarga erishish uchun O’zbekistonga davlat tomonidan qat’iy siyosiy iroda va uzoq muddatli strategiya zarur; Investitsiyalarni rag‘batlantirish va aholining ishtirokini ta’minlash muhim; Texnologik modernizatsiya bilan birga energiya samaradorligini oshirish choralari ko‘rilishi lozim.

Janubiy Koreya

Janubiy Koreya 2009-yilda "Yashil yangi kurs" dasturini qabul qildi. Unda yashil texnologiyalar, ekologik infratuzilma va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha 84 trillion von (taxminan 60 mlrd AQSh dollari) yo‘naltirilgan. Natijada, davlat budjetida energiya tejamkorligi, transport va qurilish sohalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Ushbu strategiya 2008-yilda o‘sha vaqtdagi prezident Li Myon Bak tomonidan e’lon qilingan “Past uglerodli, yashil o‘sish” (Low Carbon, Green Growth) milliy rivojlanish konsepsiyasiga asoslangan bo‘lib, 2009–2050- yillarni qamrab oluvchi uzoq muddatli yo‘l xaritasini belgilab berdi. Bu strategiya bilan Janubiy Koreyaning asosiy maqsadlari bu global o’zgarishga qarshi kurash, yangi dvigatellarini yaratish, aholi hayot sifatini oshirish va Janubiy Koreyaning xalqaro maydondagi obro‘sini oshirish. Strategiyaning xronologiyasi:

Besh yillik reja (2009–2013): Davlat har yili yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 2 foizini yashil o‘sishga yo‘naltirishni rejalashtirdi .

Yashil Yangi Kelishuv (Green New Deal): 2009-yilda ishga tushirilgan ushbu dastur qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, past uglerodli transport va ekologik infratuzilma sohalariga qaratilgan yirik loyihalarni o‘z ichiga oldi [1]

“To‘rt daryo” loyihasi: Han, Nakdong, Kum va Yongson daryolarini ekologik tiklash orqali suv xavfsizligini ta’minlash, toshqinlarning oldini olish va ekotizimlarni tiklash maqsadida amalga oshirildi .

Qonunchilik bazasi: 2010-yilda “Past uglerodli, yashil o‘sish to‘g‘risida”gi asosiy

qonun (Framework Act on Low Carbon, Green Growth) qabul qilinib, yashil siyosatni huquqiy jihatdan mustahkamladi [2]

Natijada Janubiy Koreyada yashil iqtisod yo’nalishida 2009-2013 yillar orasida 960 mingga yaqin ish o’rin yaratilgan, hamda investitsiyalar soni sezillarli oshdi, davlat va xususiy sektor tomonidan yashil texnologiyalar va infratuzilmaga katta hajmdagi sarmoyalar kiritildi. Shuningdek, janubiy Koreya xalqaro majburiyatlarga ega bo’ldi 2020-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarini “odatdagidek” ssenariyga nisbatan 30% ga kamaytirishni maqsad qilib qo‘ydi. [3] Janubiy Koreyaning “Yashil o‘sish strategiyasi” iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan muhim tashabbus bo‘lib, boshqa davlatlar uchun ham o‘rnak bo‘la oladi. Ushbu strategiya orqali mamlakat nafaqat ichki rivojlanishni ta’minladi, balki global ekologik muammolarga qarshi kurashda ham faol ishtirokchi sifatida tanildi. Koreya YAIMning 2 foizini yashil rivojlanish sohalariga yo‘naltirdi. O‘zbekiston ham budjetdan yoki davlat xususiy sherikchiligi asosida yashil energiya, transport, ekologik infratuzilma sohalariga ajratmalarni ko‘paytirishi kerak.

Daniya

Daniya energiyaning katta qismini, ya’ni 50 foizdan ortig‘ini shamol energiyasi orqali ta’minlaydi. Bu mamlakat yashil iqtisodiyot sohasida jahon etakchilaridan biri sanaladi. Shuningdek, u karbonat chiqindilarini 1990-yildan beri izchil kamaytirib kelmoqda. Bu davlat xam aksariyat davlatlardak, strategiyani iqlim o’zgarishigs qarshi kurash bilan boshlagan. Daniya 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarini 1990-yil darajasiga nisbatan 70% ga kamaytirishni va 2045-yilgacha to‘liq karbon neytral bo‘lishni maqsad qilgan. Bu maqsadlar qonuniy jihatdan majburiy bo‘lib, hukumatning barcha siyosiy qarorlarida inobatga olinadi. Daniya yashil texnologiyalar, ayniqsa dengiz shamol energetikasi, biometan va tumanli isitish sohalarida texnologik yetakchilikni qo‘lga kiritgan. Hukumat karbonni ushlash va saqlash (CCUS) hamda vodorod texnologiyalariga strategik e’tibor qaratmoqda. 2024-yilda Daniya qishloq xo‘jaligida yashil ish o‘rinlarini yaratish strategiyasini qabul qildi. Bu strategiya emissiyalarni kamaytirish, yer va biologik xilma-xillikni himoya qilish hamda oziq-ovqat ta’minotini barqarorlashtirishga qaratilgan .[4] Daniyaning tajribasiga qo’ra O’zbekiston Respublikasi xam uzoq muddatli strategik reja ishlab chiqishi zarur, masalan, energiya ishlab chiqarish bo’yicha, shamol, quyosh va biomassa energiyasidan foydalanishni kengaytirish orqali energiya mustaqilligini ta’minlash mumkin. O‘zbekiston yashil texnologiyalarni rivojlantirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashi mumkin. Bu sohada ilmiy-tadqiqot institutlari va texnoparklar faol

ishtirok etishi lozim. Daniya davlati qishloq xo’jaligiga katta etibor bergan, strategiya bo’yicha bizning yurtimiz xam barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini joriy etish orqali emissiyalarni kamaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashi mumkin.

Xitoy

Xitoyda yashil iqtisodiyot siyosiy ustuvorlikka aylangan. Mamlakatda "yashil kredit" tizimi joriy etilgan bo‘lib, korxonalar ekologik faoliyatini moliyalashtirishda ushbu mexanizm asosiy rol o‘ynaydi. 2020-yilga kelib Xitoy jahonda eng yirik quyosh paneli ishlab chiqaruvchisiga aylandi. Davlat eng yirik gaz chikaruvchi mamlakatligiga qaramay yashil iqtisodiyotga o’tishda sezilarli darajada yutuqlarga erishdi. Xitoy 2030-yilgacha karbon chiqindilarining eng yuqori darajasiga yetishni va 2060-yilgacha to‘liq karbon neytrallikka erishishni maqsad qilgan. Bu maqsadlar 14-chi besh yillik reja (2021–2025) doirasida belgilangan bo‘lib, energiya intensivligini 13,5% ga, CO_2 intensivligini esa 18% ga kamaytirishni nazarda tutadi.

[5] Shuningdek, muvafaqiyatli strategiyalar ishga tushdi,

“Made in China 2025” strategiyasi yashil iqtisodiy o‘sishni quyidagi yo‘nalishlar orqali rag‘batlantiradi:

Yashil texnologiyalarni rivojlantirish;

Energiya iste’moli tuzilmasini optimallashtirish;

Sanoat tuzilmasini modernizatsiya qilish; Atrof-muhit nazoratini kuchaytirish. [6]

“Go‘zal Xitoy 2025” tashabbusi

“Go‘zal Xitoy 2025” tashabbusi karbon neytrallik, ifloslanishni kamaytirish va yashil rivojlanishni ilgari suradi. Bu tashabbus sun’iy intellekt, IoT, qayta tiklanuvchi energiya va karbonni ushlash texnologiyalarini ekologik monitoring, energiya samaradorligi va ekologik sanoat amaliyotlarini yaxshilashda qo‘llaydi.

Xitoy yashil moliyalashtirish sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. O‘zbekiston ham yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirishi mumkin. “Made in China 2025” strategiyasi doirasida Xitoy yashil texnologiyalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston ham ilmiy-tadqiqot institutlari va texnoparklar orqali yashil texnologiyalarni rivojlantirishga e’tibor qaratishi lozim.[7]

Xulosa

Yashil iqtisodiyotga o‘tish bugungi kunda nafaqat ekologik muammolarga yechim, balki iqtisodiy taraqqiyotning barqaror va inklyuziv modelini shakllantirish vositasidir. Rivojlangan davlatlar — Daniya, Janubiy Koreya va Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi omillar muhim

ahamiyatga ega:

Uzoq muddatli strategik rejalashtirish: Har to’rala davlat yashil iqtisodiyotni milliy rivojlanish strategiyasining markaziga qo‘ygan. Bu yondashuv iqlim o‘zgarishi, energetik xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni bir vaqtning o‘zida hal etishga yordam bergan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga faol sarmoya kiritish: Shamol va quyosh energetikasi orqali Daniya va Xitoy global yetakchilarga aylangan bo‘lsa, Janubiy Koreya ham energiya samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratgan.

Yashil texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish: Xitoy va Koreya misolida, ilmiy-tadqiqot ishlari, texnologik rivojlanish va sanoat transformatsiyasi yashil iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish: Xitoyda yashil kreditlar va obligatsiyalar orqali xususiy sektorni faol jalb etish amalga oshirilgan bo‘lsa, Daniyada davlat-xususiy sheriklik muhim rol o‘ynagan.

Ijtimoiy adolat va ekologik inklyuziya: Yashil iqtisodiyot jarayonlari ijtimoiy tenglik, yangi ish o‘rinlari yaratish va hayot sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston uchun bu tajribalar muhim saboq bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha tashlangan ilk qadamlarga xalqaro tajriba asosida tizimli yondashuv zarur. Davlat siyosati, moliyaviy rag‘batlar, ilm-fan salohiyati va xususiy sektor hamkorligi orqali O‘zbekiston ham yashil iqtisodiyot sohasida yetakchi mintaqaviy modelga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

[1] Nature+1East Asia Forum+1 ; [2]greenfinanceplatform.org ;
[3].Invest In Denmark ; Википедия+1elaw.klri.re.kr+1 ;
[4]https://unece.org/DAM/timber/publications/DP-65-GreenEconomy.pdf
[5]https://www.bmwi.de/Redaktion/EN/Dossier/energy-transition.html
[6]https://www.iea.org/reports/denmark-2021
[7].Википедия

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI TURMUSH TARZINI YAXSHILASH IMKONIYATLARI

O.X.Maxmudov
TDIUAF “ Mutaxasislik, ijtimoiy gumanitar va aniq fanlari” professori, i.f.d
F.B.Yoqubova